



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI



**"MAKTABGACHA TA'LIMNING KELAJAK
MODELI: TADQIQOTLAR,
LOYIHALAR VA AMALIY ISHLAR"**

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI
2025-YIL 2-MAY, NAVOIY

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ КОНФЕРЕНЦИИ
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ

**"МОДЕЛЬ БУДУЩЕГО ДОШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ: ИССЛЕДОВАНИЯ,
ПРОЕКТЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РАБОТЫ"**

2 МАЯ 2025 ГОДА НАВОИ

COLLECTION OF MATERIALS OF THE INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC
**"THE FUTURE MODEL OF PRESCHOOL
EDUCATION: RESEARCH, PROJECTS
AND PRACTICAL WORKS"**

MAY 2, 2025 NAVOI



O‘ZBEKISTON RESPUBUKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRUGI
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

**“MAKTABGACHA TA’LIMNING KELAJAK MODELİ:
TADQIQOTLAR, LOYIHALAR VA AMALIY ISHLAR”**

**MAVZUSIDAGI ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

**“THE FUTURE MODEL OF PRESCHOOL EDUCATION:
RESEARCH, PROJECTS, AND PRACTICAL WORKS»**

**MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
PRACTICAL CONFERENCE**

**“МОДЕЛЬ БУДУЩЕГО ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ:
ИССЛЕДОВАНИЯ, ПРОЕКТЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ
РАБОТЫ”**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ
КОНФЕРЕНЦИИ**

II

Navoiy shahri
02. 05. 2025

MAKTABGACHA TA'LIMDA MOSLASHUV MUAMMOLARI VA ULARNI YENGISH USULLARI

Maripova Nodira Xamidovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi
maripovanodira@gmail.com
Akromaliyeva Madina Jaxongir qizi.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
akromaliyevamadina@gmail.com
Ikramova Sitora Axmadjonovna.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Ikramovasitora847@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalarning maktabgacha ta'lim muhitiga moslashish jarayoni, uning qiyinchiliklari hamda bu muammolarni yengishning samarali usullari yoritiladi.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy moslashuv, maktabgacha yosh, atrof-muhit, muloqot ko'nikmalari, jamiyat, o'yin, pedagogik yondashuv, individual,

Key words: social adaptation, preschool age, environment, communication skills, society, game, pedagogical approach, individual

Ijtimoiy moslashuv (adaptatsiya) bu insonning jamiyatdagi qoidalar, qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlariga moslashish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu jarayon alohida ahamiyatga ega, chunki ular ilk bor oiladan tashqaridagi ijtimoiy muhitga kirib boradilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) bolalarning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi. Aynan shu yerda ular tengdoshlari bilan muloqot qilishni, jamoada ishlashni va mustaqil qarorlar qabul qilishni o'rganadilar.

Biroq bolalarning ijtimoiy moslashuvi har doim ham oson kechmaydi. Ular yangi muhitga tushunish, jamoaga qo'shilish, yangi qoidalarni o'zlashtirish jarayonida turli psixologik va ijtimoiy qiyinchiliklarga duch keladilar.

Ijtimoiy moslashuv -bu bolaning jamiyatga qo'shilishi, yangi muhitga moslashishi, jamiyat qoidalarini qabul qilishi va ularga muvofiq xulq-atvorni shakllantirish jarayonidir. Bolalar uchun bu jarayon ilk bor maktabgacha ta'limga kelgan paytdan boshlanadi va ular asta-sekin o'zlarini jamoaning a'zosi sifatida his qila boshlaydilar. Shu o'rinda M.A.Jumayevaning: "Bolalarning ijtimoiy rivojlanishi uchun sharoit yaratishda ularga nafaqat ijtimoiy tajribani bilim va

ko'nikma shaklida o'tkazish, balki ichki salohiyatni ochib berishga ko'maklashish zarur" ligini ta'kidlashimiz zarur.

Bizga ma'lumki bolalarda ijtimoiy moslashuv quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

1.Dastlabki bosqich – bola yangi muhitga kirib keladi va atrofni kuzatadi. Bu bosqichda u o'zini noqulay his qilishi, xavotir va qo'rquvni boshdan kechirishi mumkin .

2.Moslashish bosqichi- bola asta-sekin yangi muhitga o'rganadi, tarbiyachi va tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi.

3.Integratsiya bosqichi- bola jamoaning to'laqonli a'zosiga aylanadi,faol ishtirok etadi va o'zini erkin his qiladi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalalarni ijtimoiy moslashuvida yuqorida keltirilgan bosqichlar muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolalar yangi muhitga moslashishda quyidagi muammolarga duch kelishlari mumkin:

Psixologik qiyinchiliklar: bola uyidan uzoqlashganda qo'rquv yoki stress his qilishi, uyqu buzilishi ,ishtahaninh yo'qolishi, yig'loqilik va bezovtalik kuzatilishi mumkin.

Ijtimoiy qiyinchiliklar: bola tengdoshlari bilan aloqa qilishda qiynalishi ,jamoaviy o'yinlarda ishtirok etmasligi va yolg'izlik his qilishi mumkin.

Pedagogik qiyinchiliklar: bola tarbiyachi talablarini tushunmasligi yoki qabul qilmasligi ,mashg'ulotlarga qiziqmasligi ,qoidalarga rioya qilishda muammolar paydo bo'lishi mumkin.

Albatta moslashish jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni yengishda biz, tarbiyachi-pedagoglar bolaga individual yondashgan holda o'z yordamimizni ko'rsatishimiz lozim.

M.Saidovanning fikrlariga ko'ra “Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi ularning atrof-muhitga moslashish qobiliyatini oshirish, o'zaro muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish va jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beruvchi muhim jarayondir . Bu jarayonda o'yin texnologiyalari, emotsional muhit va individual yondashuv asosiy omillar hisoblanadi” deya talqin qilganlar. Bizning fikrimizcha, bu jarayon nafaqat pedagogik yondashuvlar, balki ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilsa samaraliroq bo'ladi. Jamoaviy o'yinlar, ijodiy va syujetli-rolli faoliyatlar orqali bolalarning ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bolalarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish uchun quyidagi samarali usullarni qo'llash mumkin:

1.Ota-onalar va tarbiyachilar hamkorligi- bolaga uyda va bog'chada bir xil tarbiya usullari qo'llanishi , ota-onalar va tarbiyachilar o'rtasida muntazam muloqot bo'lishi kerak.

2.Individual yondashuv- har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, moslashuv jarayonini tashkil etish muhim.

3.Psixologik qo'llab-quvvatlash – bola yangi muhitga o'rganganida unga hissiy yordam ko'rsatish , qo'rquvlarini yengishga yordam berish kerak.

4. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish- jamoaviy o'yinlar va mashg'ulotlar orqali bolalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi ularning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.Bu jarayonda ota-onalar ,tarbiyachilar va psixologlarning hamkorligi, bolalarga individual yondashuv va psixologik qo'llab-quvvatlash muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar ularning moslashuv jarayonini yengillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Jumayeva M.A . “Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy rivojlanish . Interscience. – 2023

2. “Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish muammolari va yechimlari” Renessans-edu. – 2023

3. “Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish yo'llari” Cyberleninka – 2024

4. Saidova M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvi va uni rivojlantirish yo'llari”. Ilmiy amaliy konferensiya materiallari, - Toshkent, 2022.

5.G'ulomov U. “Pedagogika asoslari”.- Toshkent: O'zbekiston, 2021.

6.Vygotskiy L.S. “Bolalar psixologiyasi”.- Moskva: Pedagogika , 1984.

7.Jalolov J. “Maktabgacha ta'lim pedagogikasi”.- Toshkent : Fan va texnologiya , 2020.

8. Maripova N.X. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda teatr sahnalashtirishning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati TDPU .Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024 y.

